
Hokimlik qabuli: Murojaatlarni ijobiy hpl etilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda

Joriy haftadagi shahar hokimligi tomonidan tashkillangan sayyor qabulda Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarov, sektor rahbarlari, Fuqarolik ishlari bo'yicha Farg'ona tumanlararo sudi raisi Ulug'bek Oripov va ma'muriy ishlar bo'yicha sudning sud'yalari, majburiy ijro byurosi boshlig'i hamda hokim o'rinbosarlari ishtirok etishdi.

Farg'ona ixtisoslashgan san'at maktabining faollar zalida yuzga yaqin murojaatlar mas'ul rahbarlar ishtirokida o'rganildi. Yigirma nafardan ortiq fuqarolarning murojaatlar ijobiy hal qilindi. Kelib tushgan murojaatlarni o'rganish va natijasi bo'yicha mualliflarga ma'lum qilish uchun masalaga daxldor xodimlar, korxonalar, tashkilot va bo'limlarga tegishli topshiriqlar berildi. Qabul so'ngida o'tgan hafta davomida tushgan murojaatlarning o'rganilganlik holati hamda ijobiy hal etilishi bo'yicha tanqidiy tahlil qilindi. Murojaatlarga mas'uliyatsizlik bilan yondoshgan rahbarlarga ogohlantirish berildi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2022-11-16 11:27:53